O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

GULOMKODIROV KOMILJON ALISHEROVICH

NAVYE-STOKS TENGLAMALARINI UYURMA-TOK FUNKSIYASI TIZIMIDA SONLI MODELLASHTIRISH

05.01.07 – Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui
(fizika-matematika fanlari)

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2022

UDK: 519.63 (517.9)

Fizika-matematika fanlari bO‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

GULOMKODIROV KOMILJON ALISHEROVICH

NAVYE-STOKS TENGLAMALARINI UYURMA-TOK FUNKSIYASI TIZIMIDA SONLI MODELLASHTIRISH

05.01.07 – Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui
(fizika-matematika fanlari)

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2022

Fizika-matematika fanlari bO‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/FM591 raqam bilan rO‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (O‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (http:ik-fizmat.nuu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Normurodov Chori Begalievich**
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Sadullayeva Shahlo Azimbayevna**
fizika-matematika fanlari doktori, dotsen

Xudoyberganov Mirzoali Urazaliyevich
fizika-matematika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 raqamli Ilmiy kengashning 2022 yil “__”_______ soat ____ dagi majlisida bO‘lib O‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet kO‘chasi, 4- uy. Tel.: (+99871) 227-12-24, faks: (+99871) 246-53-21, 246-02-24, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan rO‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet kO‘chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2022 yil “__” ________ kuni tarqatildi.
(20__ yil “__” ________ dagi __ raqamli reestr bayonnomasi).

M. Aripov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, f.-m.f.d., professor

Z. R. Raxmanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d.

B.F.Abduraximov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash huzuridagi ilmiy seminar
raisi, f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida olib borilayotgan koʻplab ilmiy-amaliy tadqiqotlar, aksariyat hollarda, suyuqliklar va gazlar harakatini tavsiflovchi differensial tenglamalarni yechish bilan bog’liq boʻlgan tizimlarni matematik modellashtirish, chiziqli boʻlmagan tenglamalarni sonli yechish, tejamkor va samarali metodlarni qoʻllash masalalariga keltiriladi. Jumladan, Navye-Stoks tenglamalarini yechish usullarini ishlab chiqish suyuqliklar va gazlar oqimi bilan bogʻliq boʻlgan qator sohalarning rivojlanishida muhim omil boʻlib xizmat qiladi. Navye-Stoks tenglamalari bu muttasil muhitlar (suyuqliklar yoki gazlar) harakatini ularning qovushqoqlik hossasini inobatga olgan holda tavsiflovchi differensial tenglamalar sistemasidan iborat. Shunga muvofiq, Navye-Stoks tenglamalarini analitik usulda yechish bugunga qadar amalga oshirilmaganligi tufayli ushbu tenglamalarni sonli yechish algoritmlarini ishlab chiqish va dasturlar majmuini yaratish amaliy matematikaning muhim vazifalaridan biri boʻlib qolmoqda.

Hozirgi kunda jahonda chiziqli boʻlmagan evolyutsion uyurma tenglamasi va elliptik tipdagi tok funksiyasi tizimida tavsiflanuvchi Navye-Stoks tenglamalarini matematik modellashtirish va sonli yechish keng tadqiq etilmoqda. Navye-Stoks tenglamalari yechimlarini yuqori aniqlikda va samarali yechish suyuqliklar va gazlar oqimi bilan bog’liq boʻlgan barcha sohalarda jumladan suv xoʻjaligi, neft-gaz sohasi, aerodinamika, meteorologiya va boshqa koʻplab sohalar rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli Navye-Stoks tenglamalarini sonli yechish va keng doiradagi foydalanuvchilarga moʻljallangan qulay interfaysga ega dasturlar majmuasini yaratish maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tatbiqiga ega bOʻlgan suyuqlik va gazlar dinamikasi, gidrodinamika, aerodinamika sohalaridagi masalalarning sonli-analitik yechish usullarini ishlab chiqish kabi dolzarb yoʻnalishlarga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, chiziqli boʻlmagan evolyutsion jarayonlarni matematik modellashtirish va yuqori aniqlikka ega samarali taqribiy yechish usullarini ishlab chiqish boʻyicha muhim natijalarga erishildi. «Funksional analiz, algebra, differensial tenglamalar, matematik fizika, matematik modellashtirish, hisoblash matematikasi va diskret matematika, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika» kabi ustuvor yoʻnalishlar boʻyicha xalqaro standartlar darajasidagi ilmiy izlanishlar olib borish OʻzR FA V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi[1]. Bu borada suyuqliklar va gazlar harakatini tavsiflovchi Navye-Stoks tenglamalarini uyurma-tok funksiyasi tizimida samarali yechish usullarini yaratish, chiziqli boʻlmagan jarayonlarni sonli modellashtirish algoritmlarini qurish va dasturiy ta’minotini yaratish muhim ahamiyatga ega.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PQ-4947-son «Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bOʻyicha harakatlar strategiyasi tOʻg`risida»gi, 2017 yil 17 fevraldagi PQ-2789-son «Fanlar akademiyasi faoliyati,

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 7 майдаги “Математика соҳасидаги таълим сифатини ошириш ва илмий- тадқиқотларни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4708-сон қарори.

ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tO‘g`risida»gi, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari tO‘g`risida»gi, 2018 yil 27 apreldagi PQ-3682-son «Innovatsion g`oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tO‘g`risida»gi, 2020 yil 7 maydagi PQ-4708-son «Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari tO‘g`risida»gi va 2020 yil 6 oktyabrdagi PQ-4851-son «Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari tO‘g`risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yO‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. «Matematika, mexanika va informatika» ustuvor yO‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning O‘rganilganlik darajasi.

Navye-Stoks tenglamalari fanga dastlab fransuz matematigi L.Navye tomonidan 1822 yilda kiritilgan. 1845 yilda Dj.Stoks muttasil muhitlarda impuls va massaning saqlanish qonuni qo‘llash orqali siqilmaydigan qovushqoq suyuqliklarning statsionar harakatini o‘rganish natijasida ushbu tenglamalarning to‘liq shakliga ega bo‘lgan. Navye-Stoks tenglamalarining analitik yechimlarini topish ming yillik muammolari sirasiga kiradi va ushbu muammo ustida dunyo olimlari tomonidan izlanishlar olib borilmoqda. M.Y. Balaganskiy va Y.N. Zaxarovlar tomonidan Navye-Stoks tenglamalarining uyurma-tok funksiyasi tizimida oshkor iteratsiya sxemasini ko‘p komponentali optimallashtirish orqali sonli yechish qaralgan. Qisilmaydigan yopishqoq suyuqliklar uchun Navye-Stoks tenglamalarini fizik o‘zgaruvchilar bo‘yicha tejamli ayirmali sxemalarni qo‘llab yechish usuli V.M.Kovenya tomonidan tavsiya etilgan. Mazkur ayirmali sxema differensial tenglamalarni fizik jarayonlar bo‘yicha ajratishga asoslangan. Tavsiya etilayotgan algoritm tekislikdagi konvektiv ko‘chish va bitta chegarasi qizdirilgan yopiq sohadagi oqim masalalarida sinovdan o‘tkazilgan.

F.N.Yasinskiy, A.V. Yevseyev tadqiqotlarida qisilmaydigan yopishqoq suyuqliklar xarakatini tavsiflovchi Navye-Stoks tenglamalarining uyurma-tok funksiyasi tizimida modellashtirish maqsadida grafik tezlatgichlardan foydalanish metodikasi keltirilgan. A.L.Zuykov tomonidan silindrik kanalda barqarorlashgan notekis siljuvchi oqim strukturasini analitik tadqiq etish masalalari qaralgan. Ushbu tadqiqotda oqim strukturasi uyurmaning azimutal tezligiga nisbatan Laplas tenglamasi bilan va tok funksiyasiga nisbatan esa Puasson tenglamasi bilan tavsiflanishi ko‘rsatilgan. Azimutal uyurma va tok funksiyasi taqsimlanishi Furye-Bessel qatorlari ko‘rinishida ifodalangan. Uch o‘lchamli Navye-Stoks tenglamalarini oddiy fizik miqdorlarga nisbatan turli ochiq va yopiq suv ob’yektlaridagi, ularga xar xil geografik suv ob’yektlarini kiritish mumkin, suyuqliklar xarakatini sonli modellashtirish V.N. Baklagin tomonidan qaralgan.

Y.N.Kachalkina ishida qisilmaydigan yopishqoq suyuqliklar laminar harakatining uyurma-tok funksiyasi tizimidagi tekis harakati kvadratsimon g‘ovakda qaralgan. V.YE.Kamyushin, O.S.Majorova tomonidan ikki o‘lchamli Navye-Stoks tenglamalarining uyurma-tok funksiyasi tizimidagi yechish algoritmi tadqiq etilgan. Algoritm chekli ayirmali sxemalarga asoslangan bo‘lib, unda uyurmalarning ko‘chish tenglamasi uchun iteratsion hadlar quyi vaqt qatlamidan, dissipativ hadlar esa yuqori vaqt qatlamidan olingan. Ushbu algoritmning chiziqli yondashuvi turg‘unligi o‘rganilgan va Reynolds sonining kichik qiymatlarida oqimlarni modellashtirish uchun afzalligi ko‘rsatilgan.

Bundan tashqari Navye-Stoks tenglamalarini tadqiq qilishni xorijlik olimlardan T. Koyama, Wenchao Xu, Dietmar Kroner, Antoine Lejay, Lizhen Chen, Niklas Fehn, K.Mitzal, Jia Zhao, F.Massa, H.Cho., J.Chan., M.Danis, J.Marti, M.Abbaszadeh, D.Irisarri, W.Boscherilar o‘z ishlarida ko‘rib chiqqanlar. Mazkur tadqiqotchilar tomonidan Navye-Stoks tenglamalarini yechishda Bolsmanning to‘rli modeli, Galyorkin metodi va uning takomillashtirilgan ko‘rinishlari, Feyman-Kau formulasini approksimatsiyalash, vaqt bo‘yicha sakrashsimon siljishlarga ega bo‘lgan takomillashtirilgan metod, ko‘ptezlikli vaqt qadamiga asoslangan yarimoshkor yechimni topishga mo‘ljallangan chekli elementlar metodi, an’anaviy sonli ekstropolatsiyalash, o‘tish shartlarini to‘liq oshkormas va aniq hisoblashga mo‘ljallangan sonli metod, chekli elementlar metodining oshkor-oshkormas varianti, chekli ayirmalarning lokal radial metodi, Max sonining ixtiyoriy qiymatlarida chekli hajmli ikkinchi tartibli samarali metod kabi ko‘plab hisoblash sxemalari va metodlari qo‘llanilgan. Ikki o‘lchamli Navye-Stoks tenglamalarini gidrodinamik turg’unlik nuqtai nazaridan sonli modellashtirishga bag’ishlangan ilmiy tadqiqotlar S.A.Orszag, A.Zebib, F.B.Abutaliyev, Ch.B.Normurodov tomonidan olib borilgan. Yuqorida keltirilgan tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, Navye-Stoks tenglamalarini uyurma-tok funksiyasi tizimida sonli modellashtirishni optimallashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar deyarli mavjud emas. Ushbu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borish yanada murakkab uch o‘lchamli Navye-Stoks tenglamalarini yechishga mo‘ljallangan samarali metodlar yaratishga imkon beradi hamda dolzarb ilmiy tadqiqot yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog`liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlar rejasiga muvofiq “Matematik modellashtirish, hisoblash usullari va dasturlash texnologiyalari” dasturi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Navye-Stoks tenglamalarini uyurma-tok funksiyasi tizimida samarali yechish metodlari, algoritmlari va dasturiy ta’minotini yaratishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Navye-Stoks tenglamalarini uyurma-tok funksiyasi tizimida tavsiflovchi matematik modelni ishlab chiqish;

ikki qatlamli o‘zgaruvchan yo‘nalishli iteratsiya sxemasining optimal iteratsiya parametrlari to‘plamida yaqinlashishini isbotlash;

Puasson tenglamasi bilan tavsiflanadigan tok funksiyasini o‘zgaruvchan yo‘nalishli iteratsiya sxemasi bilan yechish algoritmini ishlab chiqish va dasturiy ta’minotini yaratish;

bir o‘lchamli uyurma tenglamasi uchun manba funksiyasi hamda kinematik qovushqoqlik koeffitsiyentini aniqlashning teskari masalasini yechish;

ikki o‘lchamli uyurma tenglamasini sonli yechish metodlarini tahlil qilish, samarali va yuqori aniqlikka ega bo‘lgan metod ishlab chiqish va dasturiy ta’minot yaratish.

Tadqiqotning ob’yekti Navye-Stoks tenglamalarining uyurma-tok funksiyasi tizimidagi matematik modelidan iborat.

Tadqiqotning predmeti Navye-Stoks tenglamalarini uyurma-tok funksiyasi tizimida sonli modellashtirish, algoritmlash hamda dasturiy ta’minotini yaratishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida matematik va sonli modellashtirish, ayirmali operatorlar nazariyasi, funksional tahlil, approksimatsiyalash nazariyasi, ikki qatlamli iteratsiya sxemalari hamda hisoblash eksperimentlari o‘tkazish usullari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Navye-Stoks tenglamalarini uyurma-tok funksiyasi tizimida tavsiflovchi adekvat matematik model ishlab chiqilgan;

optimal iteratsiya parametrlariga ega bo‘lgan o‘zgaruvchan yo‘nalishli iteratsiya sxemasining yaqinlashishini ta’minlovchi teoremalar isbotlangan;

tok funsiyasi uchun Puasson tenglamasini optimal iteratsiya parametrlariga ega bo‘lgan o‘zgaruvchan yo‘nalishli iteratsiya metodi yordamida sonli yechish usuli ishlab chiqilgan;

bir o‘lchamli uyurma tenglamasi to‘g’ri masalasi yechimlarini va teskari masalalari manba hadini tiklash, kinematik qovushqoqlik koeffitsiyentini yuqori aniqlikda topish usuli ishlab chiqilgan;

Navye-Stoks tenglamalarining uyurma-tok funksiyasi tizimidagi yechimlarini yuqori aniqlikda samarali topishga mo‘ljallangan va optimal iteratsiya parametrlariga ega bo‘lgan o‘zgaruvchan yo‘nalishli iteratsiya metodi yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Navye-Stoks tenglamalarini tavsiflovchi mavjud matematik modellar tahlil qilingan va ularni samarali hisoblash algoritmlari ishlab chiqilgan;

uyurma va tok funksiyasi tenglamalarini yechish orqali Navye-Stoks tenglamalarining yechimlarini yuqori aniqlikda topish metodi, algoritmi va dasturiy ta’minoti yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Amaliy matematika, hisoblash gidrodinamikasi, ayirmali sxemalar nazariyasi, o‘zgaruvchan yo‘nalishli iteratsiya sxemasi, sinov funksiyalari, progonka usullaridan foydalanilganligi, Navye-Stoks tenglamalari sonli yechimlarining boshqa mualliflar tomonidan olingan sonli va eksperimental natijalar bilan taqqoslanganligi, ushbu tenglamalarning uyurma-tok funksiyasi tizimida yechish metodining yuqori aniqligi va tejamliligini baholash bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Navye-Stoks tenglamalarini uyurma-tok funksiyasi tizimida sonli modellashtirish yordamida ushbu tenglamalar yechimlari tabiati va o‘zgarish dinamikasini tahlil qilish imkoniyati paydo bo‘lganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy natijalari qisilmaydigan yopishqoq suyuqliklar harakatini uyurma-tok funksiyasi tizimida sonli yechishning takomillashtirilgan matematik modellari, hisoblash algoritmlari va dasturiy ta’minoti suyuqliklar mexanikasi va gidrodinamikasi to‘g‘ri va teskari masalalarini yechishda qo‘llash mumkinligi bilan, qisilmaydigan yopishqoq suyuqliklar harakatini tahlil qilish, gidrodinamika sohasidagi jarayonlarni sifat va miqdor jihatdan baholashga imkon berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Navye-Stoks tenglamalarini uyurma-tok funksiyasi tizimida sonli yechishning takomillashtirilgan modellari, algoritmlari va dasturiy ta’minoti asosida:

Navye-Stoks tenglamalarini elliptik tipdagi tok funksiyasi va parabolik tipdagi uyurma tenglamasi ko‘rinishida sonli modellashtirishning to‘g‘ri va teskari masalalarini yechish algoritmlaridan A-13-38 raqamli “Ikki fazali muhit nochiziqli tO‘lqin dinamikasi uchun tO‘g`ri va teskari masalalarning nazariy va sonli tadqiq qilish” ilmiy tadqiqot loyihasida yuqori tartibli hosila oldida kichik parametr bO‘lgan parabolik tenglamalarni sonli yechishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi oliy va O‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 20 noyabrdagi 89-03-4862-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, yuqori tartibli hosila oldida kichik parametr bO‘lgan parabolik tenglamalarni sonli hisoblash sxemalarini ishlab chiqish imkonini bergan;

elliptik tipdagi tok funksiyasi va evolyutsion uyurma tenglamasi ko‘rinishida tavsiflanuvchi Navye-Stoks tenglamalarini sonli modellashtirish uchun o‘zgaruvchan yo‘nalishli iteratsiya metodida optimal iteratsiya parametrlarini tanlab yechish algoritmidan A-13-38 raqamli “Ikki fazali muhit nochiziqli tO‘lqin dinamikasi uchun tO‘g`ri va teskari masalalarning nazariy va sonli tadqiq qilish” ilmiy tadqiqot loyihasida Navye-Stoks tenglamalarini sonli modellashtirish, kompyuter dasturini yaratish va keng qamrovli hisoblash eksperimenti O‘tkazishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi oliy va O‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 20 noyabrdagi 89-03-4862-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, elliptik tipdagi tok funksiyasi va evolyutsion uyurma tenglamasi ko‘rinishida tavsiflanuvchi Navye-Stoks tenglamalarini sonli modellashtirish uchun o‘zgaruvchan yo‘nalishli iteratsiya sxemasida optimal iteratsiya parametrlarini tanlab yechish algoritmini ishlab chiqish, kompyuter dasturini yaratish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining approbatsiyasi. Mazkur dissertatsiya natijalari 9 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 5 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan O‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bO‘yicha jami 21 ta ilmiy ish chop etilgan, ulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy va 4 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan. Shuningdek, EHM uchun yaratilgan dasturning rasmiy rO‘yxatdan O‘tkazilganligi tO‘g`risida 4 ta guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar rO‘yxati va ilovadan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 102 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yO‘nalishlariga mosligi kO‘rsatilgan, dissertatsiya mavzusiga oid ilmiy tadqiqotlar tahlili, muammoning O‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, ob’yekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bO‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “Navye-Stoks tenglamalari uchun uyurma-tok funksiyasi sistemasi” deb nomlanuvchi birinchi bobida dissertatsiyaning asosiy natijalarini bayon qilishda zarur bO‘ladigan yordamchi ma’lumotlar, Navye-Stoks tenglamalarining fizik mohiyati, tenglamalarning uyurma-tok funksiyasi tizimidagi bir va ikki o‘lchamli ko‘rinishlari, ularga mos boshlang‘ich va chegaraviy shartlarning qo‘yilishi keltirilgan. Tok funksiyasi uchun o‘zgaruvchan yo‘nalishli iteratsiya sxemasining yaqinlashishini ta’minlovchi teoremalar isbotlangan.

Dissertatsiyaning 1.1 paragrafida Navye-Stoks tenglamalarining o‘lchamsiz holda umumiy ko‘rinishi berilgan:

$$\frac{\partial u}{\partial t}+u\frac{\partial u}{\partial x}+\vartheta\frac{\partial u}{\partial y}=-\frac{1}{\rho}\frac{\partial P}{\partial x}+\nu\left(\frac{\partial^2 u}{\partial x^2}+\frac{\partial^2 u}{\partial y^2}\right), \tag{1}$$

$$\frac{\partial \vartheta}{\partial t}+u\frac{\partial \vartheta}{\partial x}+\vartheta\frac{\partial \vartheta}{\partial y}=-\frac{1}{\rho}\frac{\partial P}{\partial y}+\nu\left(\frac{\partial^2 \vartheta}{\partial x^2}+\frac{\partial^2 \vartheta}{\partial y^2}\right), \tag{2}$$

$$\frac{\partial u}{\partial x}+\frac{\partial \vartheta}{\partial y}=0, \tag{3}$$

hamda ushbu tenglamalar ustida matematik almashtirishlar va ayrim belgilashlar kiritilib, uyurma-tok funksiyasi tizimida ifodalangan.

Dissertatsiyaning 1.2 paragrafida bir o‘lchamli tok funksiyasi va uyurma tenglamasining umumiy ko‘rinishi, masalani yechish uchun boshlang‘ich va chegaraviy shartlarning qo‘yilishi tahlil qilingan:

$$\frac{\partial \omega}{\partial t}+\psi\frac{\partial \omega}{\partial x}=\nu\frac{\partial^2 \omega}{\partial x^2}+Q(t,x),\quad 0<x<1,\ 0<t<T, \tag{4}$$

$$\frac{\partial^2 \psi}{\partial x^2}=-\omega,\quad 0<x<1,\ 0<t\le T \tag{5}$$

bu yerda x - fazoviy koordinata, t - vaqt, ω- uyurma, ψ - tok funksiyasi, $Q(t,x)$- ma’lum funksiya.

Paragraf 1.3 da ikki o‘lchamli Navye-Stoks tenglamalarining uyurma-tok funksiyasi tizimidagi ko‘rinishi va differensial masalaning qo‘yilishi keltirilgan:

$$\frac{\partial\omega}{\partial t}+\frac{\partial\omega}{\partial x}\frac{\partial\psi}{\partial y}-\frac{\partial\omega}{\partial y}\frac{\partial\psi}{\partial x}=\nu\left(\frac{\partial^2\omega}{\partial x^2}+\frac{\partial^2\omega}{\partial y^2}\right)+Q\left(t,x,y\right), \tag{6}$$

$$\frac{\partial^2\psi}{\partial x^2}+\frac{\partial^2\psi}{\partial y^2}=-\omega, \tag{7}$$

$$\frac{\partial\psi}{\partial y}=u,\ \ \frac{\partial\psi}{\partial x}=-v,\ \ \omega=\frac{\partial v}{\partial x}-\frac{\partial u}{\partial y}. \tag{8}$$

Paragraf 1.4 da ikki o‘lchamli tok funksiyasi tenglamasi uchun iteratsiya metodlarining yaqinlashishini ta’minlaydigan lemma va teoremalar isbotlangan.

Γ chegara bilan chegaralangan to‘g‘ri to‘rtburchakli $\bar{G}=\{0\le x_\alpha\le l_\alpha,\ \alpha=1,2\}$ sohada Puasson tenglamasi uchun Dirixle masalasi qaraladi:

$$\Delta\psi=\frac{\partial^2\psi}{\partial x^2}+\frac{\partial^2\psi}{\partial y^2}=-\omega(x,y),\ (x,y)\in G, \tag{9}$$

$$\psi\big|_{\Gamma}=\mu(x,y). \tag{10}$$

$\bar{G}=G+\Gamma$ sohaga qadamlari h_1 va h_2 ga teng bo‘lgan to‘g’ri to‘rtburchakli to‘r kiritiladi:

$$\overline{\Omega_h}=\Omega_h+\gamma_h=\{(x_i,y_j)=\left(ih_1,jh_2\right)\in\bar{G},\ i=0,1,...,N_1,\ j=0,1,...,N_2,$$
$$h_1=l_1/N_1,\ h_2=l_2/N_2\}.$$

To‘rning chegaraviy nuqtalari - $\gamma_h=\{x_{i_1i_2}\in\Gamma\}$ bo‘lsin. Endi $\bar{G}=\{0\le x\le l_1,\ 0\le y\le l_2\}$ to‘g‘ri to‘rtburchakdagi $\bar{\Omega}_h$ to‘r sohasida differensial masala (9)-(10) uchun Dirixle masalasi qaraladi:

$$\Lambda\psi=\Lambda_1\psi+\Lambda_2\psi=-\omega(x,y),\ x\in\Omega_h, \tag{11}$$

$$\psi\big|_{\gamma_h}=\mu(x,y), \tag{12}$$

bu yerda $\Lambda_\alpha=\psi_{x_\alpha x_\alpha}$ - hususiy hosila $\frac{\partial^2 u}{\partial x_\alpha^2}\left(\alpha=1,2\right)$, ni approksimatsiya qiluvchi ikkinchi tartibli ayirmali operator, ψ - esa ayirmali yechim.

Ayirmali masala (11) ni yechish uchun iteratsiya metodi sifatida o‘zgaruvchan yo‘nalishli iteratsiya sxemasi olinadi. U quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\frac{\psi^{j+1/2}-\psi^{j}}{\tau^{(1)}_{j+1}}=\Lambda_1\psi^{j+1/2}+\Lambda_2\psi^{j}+\omega(x,y),\ x\in\Omega_h,\ \psi^{j+1/2}\Big|_{\gamma_h}=\mu(x,y), \tag{13}$$

$$\frac{\psi^{j+1}-\psi^{j+\frac{1}{2}}}{\tau^{(2)}_{j+1}}=\Lambda_1\psi^{j+\frac{1}{2}}+\Lambda_2\psi^{j+1}+\omega(x,y),\ \psi^{j+1}\Big|_{\gamma_h}=\mu(x,y),\ x\in\Omega_h,\ j=0,1,2,.. \tag{14}$$

$\psi^0=\psi\left(x,0\right)$ ixtiyoriy boshlang‘ich shartlar.

Bu yerda j - iteratsiya nomeri, $\psi^{j+1/2}$ - oraliq iteratsiya (iteratsiya osti), $\tau_{j+1}^{(1)} > 0$ va $\tau_{j+1}^{(2)} > 0$ - iteratsiyalar sonining minimalligi nuqtai nazaridan tanlab olinadigan iteratsiya parametrlari.

Uch nuqtali tenglamalar sistemasi uchun j - iteratsiyadan $(j+1)$ iteratsiyaga o‘tish progonka metodini qatorlar va ustunlar bo‘yicha navbatma navbat qo‘llash orqali amalga oshiriladi:

$$\psi^{j+1/2} - \tau_{j+1}^{(1)}\Lambda_1\psi^{j+1/2} = F^j,\ F^j = \psi^j + \tau_{j+1}^{(1)}\Lambda_2\psi^j + \tau_{j+1}^{(1)}\omega \tag{15}$$

(qatorlar bo‘yicha) va

$$\psi^{j+1} - \tau_{j+1}^{(2)}\Lambda_2\psi^{j+1} = F^{j+1/2},\ F^{j+1/2} = \psi^{j+1/2} + \tau_{j+1}^{(2)}\Lambda_1\psi^{j+1/2} + \tau_{j+1}^{(2)}\omega \tag{16}$$

(ustunlar bo‘yicha).

Shunday qilib, Ω_h to‘rda bitta iteratsiyani hisoblash uchun $\theta(1/(h_1h_2))$ yoki $\theta(N_1 \times N_2)$ arifmetik amal bajarilishi talab qilinadi. Iteratsiya jarayoni (13)-(14) ni o‘zgaruvchan yo‘nalishli iteratsiya metodi deb ataladi (O‘YIM).

Teorema 1. O‘zgaruvchan yo‘nalishli iteratsiya metodi o‘z-o‘ziga qo‘shma hal qilish operatori $T_n^* = T_n = \prod_{j=1}^{n} S_j$ ga ega, bu yerda $S_j = S_j^{(1)}S_j^{(2)},\ S_j^{(1)} = \left(E + \tau_j^{(1)}A_1\right)^{-1}\left(E - \tau_j^{(2)}A_1\right),\ S_j^{(2)} = \left(E + \tau_j^{(2)}A_2\right)^{-1}\left(E - \tau_j^{(1)}A_2\right),$ $\tau_j^{(1)}, \tau_j^{(2)}$ – iteratsiya parametrlari.

Operatorli tenglama qaraladi: $Au = f,\ A = A_1 + A_2$ bu yerda $\mathrm{A} : \mathrm{H} \to \mathrm{H}$, $\mathrm{H} - (y, \vartheta)$ - skalyar ko‘paytma va $\|y\| = \sqrt{(y, y)}$ Gilbert fazosidagi norma. A_1 va A_2 o‘rin almashinuvchi operatorlar, yoki $A_1A_2 = A_2A_1$, soha to‘g‘ri to‘rtburchakli deb qaraladi. A_1 va A_2 operatorlar spektri turli xil kesmalarda joylashgan va quyidagi xossalarga ega:

$$\begin{gathered} A_\alpha^* = A_\alpha,\ \delta_\alpha E \le A_\alpha \le \Delta_\alpha E,\ \delta_\alpha > 0,\ \alpha = 1,2, \\ \delta_\alpha = \frac{4}{h_\alpha^2}\sin^2\frac{\pi h_\alpha}{2l_\alpha},\ \Delta_\alpha = \frac{4}{h_\alpha^2}\cos^2\frac{\pi h_\alpha}{2l_\alpha},\ \alpha = 1,2. \end{gathered} \tag{17}$$

Lemma. Shart (17) bajarilgan bo‘lsin. U holda A_1 va A_2 operatorlarni spektr chegaralari mos tushadigan A_1' va A_2' operatorlarga almashtirish mumkin

$$\eta E \le A_\alpha' \le E,\ \alpha = 1,2,\ \eta > 0 \tag{18}$$

bunda

$$\begin{gathered} A_1 = \left(qE - rA_1'\right)^{-1}\left(A_1' - pE\right), \\ A_2 = \left(qE + rA_2'\right)^{-1}\left(A_2' + pE\right) \end{gathered} \tag{19}$$

bu yerda noma’lum p, q, r, η doimiy kattaliklar quyidagi formulalar bilan aniqlanadi:

$$t=\sqrt{\frac{(\Delta_1-\delta_1)(\Delta_2-\delta_2)}{(\Delta_1+\delta_2)(\Delta_2+\delta_1)}},\ \kappa=\frac{(\Delta_1-\delta_1)\Delta_2}{(\Delta_2+\delta_1)\Delta_1}$$

$$\eta=\frac{1-t}{1+t},\ p=\frac{\kappa-t}{\kappa+t},\ r=\frac{\Delta_1-\Delta_2+(\Delta_1+\Delta_2)p}{2\Delta_1\Delta_2},\ q=r+\frac{1-p}{\Delta_1} \tag{20}$$

Hal qilish operatori T_n ning normasi baholanadi va o‘zgaruvchan yo‘nalishli iteratsiya metodi (O‘YIM) ning yechimini topishda berilgan $\varepsilon>0$ aniqlikni ta’minlovchi iteratsiyalar soni $n(\varepsilon)$ aniqlanadi.

Teorema 2. Iteratsiya metodining aniqligi $\varepsilon>0$ berilgan va $A_\alpha\ (\alpha=1,2)$ operatorlarning spektrlar chegaralari $\delta_\alpha,\Delta_\alpha$ ma’lum, xuddi shuningdek lemma shartlari bajarilgan bo‘lsin. U holda o‘zgaruvchan yo‘nalishli iteratsiya metodi (O‘YIM) uchun optimal iteratsiya parametrlari to‘plami quyidagicha aniqlanadi:

$$\tau_j^{(1)}=\frac{q\omega_j+r}{1+\omega_j p},\ \tau_j^{(2)}=\frac{q\omega_j-r}{1-\omega_j p} \tag{21}$$

bunda

$$\omega_j=\frac{(1+2\theta)\left(1+\theta^{\sigma}\right)}{2\theta^{\frac{\sigma}{2}}\left(1+\theta^{1-\sigma}+\theta^{1+\sigma}\right)},\ j=1,2,...,n(\varepsilon)$$

$$\theta=\frac{1}{16}\eta^2\left(1+\frac{1}{2}\eta^2\right),\ \sigma=\frac{2j-1}{2n(\varepsilon)} \tag{22}$$

$$\|Ay_n-f\|\le\|T_n\|\|Ay_0-f\|,$$

hamda ushbu tengsizlik o‘rinli bo‘lishi uchun

$$\|Ay_n-f\|\le\varepsilon\|Ay_0-f\|,\ \|T_n\|\le\varepsilon \tag{23}$$

n iteratsiya bajarilishi yetarlidir, bunda

$$n\ge n(\varepsilon),\ n(\varepsilon)\approx\frac{1}{\pi^2}\ln\frac{4}{\varepsilon}\ln\frac{4}{\eta}. \tag{24}$$

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Bir o‘lchamli uyurma-tok funksiyasi tenglamalari uchun to‘g‘ri va teskari masalalar”** deb nomlanib, unda bir o‘lchamli uyurma va tok funksiyasi uchun to‘g‘ri va teskari masalalarni yechish metodlari, algoritmlari va hisoblash natijalari keltiriladi.

Paragraf 2.1 da bir o‘lchamli uyurma va tok funksiyasi tenglamalarini sonli modellashtirish qaralgan.

Tenglamalar sistemasi (4), (5) ga quyidagi ko‘rinishdagi boshlang‘ich va chegaraviy shartlar qo‘yiladi:

$$\psi(0,x)=0,\ \omega(0,x)=0, \tag{25}$$

$$\psi(t,0)=\psi(t,1)=\frac{\partial\psi}{\partial x}(t,0)=\frac{\partial\psi}{\partial x}(t,1)=0. \tag{26}$$

Sinov funksiyasi sifatida $Q(t,x)=Q(x)=24+12x^2(1-x^2)(1-2x)$ funksiya qaraladi. Tenglama (4)-(5) ni yechish uchun h va t yo‘nalishlar bo‘yicha [0,1] kesmada mos ravishda teng oraliqli $\Omega_h:\{x_i=ih,\, i=0,1,...,M,\, h=1/M\}$ va $\Omega_\tau:\{t_k=k\tau,\, k=0,1,...,\tau=1/N\}$ to‘rlar kiritiladi, $\Omega=\Omega_h\times\Omega_\tau$ to‘rda (4)-(5), (25)-(26) masala oshkormas sxema bo‘yicha approksimatsiya qilinadi hamda progonka metodini qo‘llab yechiladi.

Paragraf 2.2 da uyurma tenglamasining manba hadini topishning teskari masalasini yechish amalga oshirilgan.

Bunda bir o‘lchamli uyurma-tok funksiyasi uchun differensial tenglama (4) - (5) ko‘rinishda ifodalanadi. Ushbu tenglamalar quyidagi boshlang‘ich va chegaraviy shartlarda qaraladi:

$$\psi(0,x)=0,\ \omega(0,x)=0, \tag{27}$$

$$\psi(t,0)=\psi(t,1)=0,\ \frac{\partial\psi(t,0)}{\partial x}=0, \tag{28}$$

$$\omega(t,0)=-\frac{\partial^2\psi(t,0)}{\partial x^2},\ \omega(t,1)=-\frac{\partial^2\psi(t,1)}{\partial x^2}. \tag{29}$$

Qaralayotgan masalada tenglama (4) dagi $\omega(x,t)$ va $\psi(x,t)$ ma’lum funksiyalar orqali noma’lum $Q(t,x)$ funksiyani aniqlash talab etiladi. Bunda $Q(t,x)$ funksiya quyidagi ko‘rinishga ega deb hisoblanadi:

$$Q(t,x)=Q_0\,\eta(t)\,\varphi(x), \tag{30}$$

bu yerda $\varphi(x)$ funksiya berilgan, hamda ifoda (30) ga asosan manbaning vaqtga bog‘liq $\eta(t)$ funksiyasi noma’lum hisoblanadi. Bu bog‘liqlik bir qancha ichki $0<x^*<1$ nuqtalarda $\omega(x,t)$ funksiyani qo‘shimcha kuzatish orqali tiklanadi:

$$\omega(x^*,t)=z(t). \tag{31}$$

Ushbu paragrafda masala (4)-(5), (27)-(28) larni tadqiq etish maqsadida sonli eksperiment o‘tkazilgan bo‘lib, tenglamaning o‘ng qismi quyidagi bog‘liqliklar bilan beriladi:

$$\varphi(x)=\sin\pi x,\ \ 0\le x\le 1,$$

$$\eta(t)=t^2+1,\ \ 0\le t\le T=0.4,\ Q_0=100.$$

Qaralayotgan masala to‘r tugunlari M=400, N=21 bo‘lgan ayirmali to‘rda sonli yechiladi.

2.3 paragrafda uyurma tenglamasida kinematik qovushqoqlik koeffitsiyentini topishning teskari masalasi sonli modellashtirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ikki o‘lchamli uyurma-tok funksiyasi tenglamalarini sonli modellashtirish”** nomli uchinchi bobida qaralayotgan masalalarning sonli yechimi o‘zgaruvchan yo‘nalishli iteratsiya metodi bilan hisoblanadi, hamda olingan natijalar aniq yechim bilan taqqoslanadi.

3.1 paragrafda tok funksiyasi tenglamasini optimal iteratsiya parametrlarini tanlash orqali sonli yechish amalga oshirilgan.

Tok funksiyasi uchun puasson tenglamasi quyidagicha ko‘rinishga ega

$$\nabla^2\psi = \frac{\partial^2\psi}{\partial x_1^2} + \frac{\partial^2\psi}{\partial x_2^2} = -\omega(x_1, x_2),\ 0 < x_\alpha < l_\alpha \ \ \alpha = 1,2 \tag{32}$$

$$\psi\big|_\Gamma = \mu(x_1, x_2)\,. \tag{33}$$

Differensial masalalar (32)-(33) to‘g‘ri to‘rtburchakli $\bar{G} = G + \Gamma = \{0 \le x_\alpha \le l_\alpha,\ \alpha = 1,2\}$ sohada aniqlangan. Bu yerda Γ - $\bar{G}$ sohaning chegarasi hisoblanadi, $\nabla = \frac{\partial}{\partial x_1} i + \frac{\partial}{\partial x_2} j$ - differensial operator.

Differensial masala qaralayotgan $\bar{G}$ sohada ayirmali to‘r kiritiladi:

$$\bar{\Omega}_{h_1 h_2} = \begin{Bmatrix} (x_{1_i}, x_{2_i}),\ x_{1_i} = ih_1,\ i = 0..N_1,\ h_1 = 1/N_1 \\ x_{2_i} = jh_2,\ j = 0..N_2,\ h_2 = 1/N_2 \end{Bmatrix}$$

Ayirmali to‘rda (32)-(33) differensial masalaga mos ravishda quyidagi ayirmali masala qo‘yiladi:

$$\Lambda\psi = \Lambda_1\psi + \Lambda_2\psi = -\omega(x_1, x_2),\ x \in \Omega_h \tag{34}$$

$$\psi\big|_{\gamma_h} = \mu(x_1, x_2) \tag{35}$$

$$\Lambda_\alpha\psi = \psi_{\bar{x}_\alpha x_\alpha} = \frac{\psi(x_\alpha - h_\alpha) - 2\psi(x_\alpha) + \psi(x_\alpha + h_\alpha)}{h_\alpha^2},\ \alpha = 1,2$$

bu yerda fiksirlangan indeks soddalik uchun keltirilmagan.

$\bar{\Omega}_h = \Omega_h + \gamma_h = \{x_i = (ih_1, jh_2) \in \bar{G},\ i = 0,1,...,N_1,\ j = 0,1,...,N_2$

Ayirmali masala (34)-(35) ni yechishda o‘zgaruvchan yo‘nalishli iteratsiya sxemasi qo‘llanilgan:

$$\begin{aligned} &\frac{\psi^{k+\frac{1}{2}} - \psi^k}{\tau^{(1)}_{k+1}} = \Lambda_1\psi^{k+\frac{1}{2}} + \Lambda_2\psi^k + f(x),\ \ f(x) = \omega(x),\ \psi^{k+\frac{1}{2}}\Big|_{\gamma_h} = \mu(x),\ x \in \Omega_h \\ &\frac{\psi^{k+1} - \psi^{k+\frac{1}{2}}}{\tau^{(2)}_{k+1}} = \Lambda_1\psi^{k+\frac{1}{2}} + \Lambda_2\psi^{k+1} + f(x),\ \ f(x) = \omega(x), \psi^{k+1}\Big|_{\gamma_h} = \mu(x),\ x \in \Omega_h \end{aligned} \tag{36}$$

bunda $k = 0,1,2,...,$ $\psi^0 = \psi(x,0)$ ixtiyoriy berilgan boshlang‘ich yaqinlashish.

Bu yerda k- iteratsiya nomeri, $\psi^{k+1/2}$ - oraliq iteratsiya, $\tau^{(1)}_{k+1} > 0$ va $\tau^{(2)}_{k+1} > 0$ lar iteratsiyalar soni minimal bo‘lishi shartidan tanlab olinadigan iteratsiya parametrlari. Iteratsiya metodi (36) da k-iteratsiyadan $(k+1)$- iteratsiyaga o‘tish qatorlar va ustunlar bo‘yicha progonka metodini qo‘llash orqali amalga oshiriladi:

qatorlar bo‘yicha

$$\psi^{k+1/2} - \tau^{(1)}_{k+1}\Lambda_1\psi^{k+1/2} = F^k, \tag{37}$$

ustunlar bo‘yicha

$$\psi^{k+1} - \tau^{(2)}_{k+1}\Lambda_2\psi^{k+1} = F^{k+1/2}, \tag{38}$$

bu yerda, $F^k = \psi^k + \tau^{(1)}_{k+1}\Lambda_2\psi^k + \tau^{(1)}_{k+1} f$, $F^{k+1/2} = \psi^{k+1/2} + \tau^{(2)}_{k+1}\Lambda_1\psi^{k+1/2} + \tau^{(2)}_{k+1} f$.

$\bar{\Omega}_h$ to‘rda aniqlangan va γ_h chegarada nolga aylanadigan to‘r funksiyalar fazosi $H = \dot{\Omega}$ orqali tasvirlangan. $\dot{\Omega}$ fazoga $h, y \in \dot{\Omega}$ ni qanoatlantiruvchi ixtiyoriy parametrlar uchun $A_1\psi = -\Lambda_1\psi,\ A_2\psi = -\Lambda_2\psi$ operatorlar kiritiladi.

Bunday ko‘rinishda kiritilgan operatorlar quyidagi hususiyatlarga ega bo‘ladi:

$$A_\alpha^* = A_\alpha,\ \delta_\alpha E \le A_\alpha \le \Delta_\alpha E,\ \delta_\alpha > 0,\ \alpha = 1,2$$
$$\delta_\alpha = \frac{4}{h_\alpha^2}\sin^2\frac{\pi h_\alpha}{2l_\alpha},\ \Delta_\alpha = \frac{4}{h_\alpha^2}\cos^2\frac{\pi h_\alpha}{2l_\alpha},\ \alpha = 1,2 \tag{39}$$

Tenglamalar sistemasi (37)–(38) ni sonli yechishda dastlab doimiylar (20) hisoblanadi va formula (21) bo‘yicha optimal iteratsiya parametrlari $\tau_{k+1}^{(1)}$ va $\tau_{k+1}^{(2)}$lar tanlanadi. So‘ngra $\varepsilon > 0$ aniqlikni ta’minlash uchun yetarli bo‘lgan iteratsialar soni $n = n(\varepsilon)$ formula (24) bo‘yicha aniqlanadi.

Ushbu paragrafda differensial masala (32)-(33) uchun sinov funksiyasi sifatida $\psi(x_1, x_2) = e^{A(x_1+x_2)}$ funksiya qo‘llanilgan. Olingan sonli natijalar aniq yechim bilan jadval va grafik ko‘rinishda taqqoslangan.

Paragraf 3.2 da uyurma va tok funksiyasi tenglamalar sistemasini Pismen-Rekford va o‘zgaruvchan yo‘nalishli iteratsiya sxemasini optimal iteratsiya parametrlarini qo‘llab sonli yechish amalga oshirilgan.

Navye-Stoks tenglamalar sistemasi “uyurma-tok” funksiyasi tizimida I-bobda keltirilganidek quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\frac{\partial\omega}{\partial t} + \frac{\partial\omega}{\partial x}\frac{\partial\psi}{\partial y} - \frac{\partial\omega}{\partial y}\frac{\partial\psi}{\partial x} = \nu\left(\frac{\partial^2\omega}{\partial x^2} + \frac{\partial^2\omega}{\partial y^2}\right) + Q(t, x, y), \tag{40}$$

$$\frac{\partial^2\psi}{\partial x^2} + \frac{\partial^2\psi}{\partial y^2} = -\omega, \tag{41}$$

$$\frac{\partial\psi}{\partial y} = u,\ \frac{\partial\psi}{\partial x} = -\vartheta,\ \omega = \frac{\partial\vartheta}{\partial x} - \frac{\partial u}{\partial y}. \tag{42}$$

Bu yerda $x,\ y$ – fazoviy koordinatalar, t – vaqt, u va ϑ – тezlik vektorining koordinata o‘qlaridagi proyeksiyalari, ν – kinematik qovushqoqlik koeffitsiyenti, ψ – tok funksiyasi, ω – uyurma funksiyasi, Q – ma’lum funksiya.

Tenglamalar sistemasi (40)-(41) uchun $D:\{(x, y) \in [0,1]\times[0,1]\}$ sohada quyidagi chegaraviy shartlar qo‘yiladi:

$$\psi|_{x=0} = 0,\quad \psi|_{x=1} = 0,\quad \left.\frac{\partial\psi}{\partial x}\right|_{x=0} = 0,\quad \left.\frac{\partial\psi}{\partial x}\right|_{x=1} = 0,\quad 0 \le y \le 1, \tag{43}$$

$$\psi|_{y=0} = 0,\quad \psi|_{y=1} = 0,\ \left.\frac{\partial\psi}{\partial y}\right|_{x=0} = 0,\ \left.\frac{\partial\psi}{\partial y}\right|_{x=1} = 0,\ 0 \le x \le 1. \tag{44}$$

Boshlang’ich shartlar quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$\psi(0, x, y) = 0,\ \omega(0, x, y) = 0 \tag{45}$$

D sohada teng oraliqli to‘r kiritiladi:

$$\Omega_h = \left\{ x_i = ih, \ \ y_j = jh, \ \ 0 \le i, j \le N, \ \ h = \frac{1}{N} \right\}.$$

Vaqt – t bo‘yicha to‘rni quyidagicha aniqlanadi:

$$\Omega_\tau = \left\{ t_k = k\tau, \ \ k = 0,1,... \right\}.$$

Differensial tenglamalar (40)-(41) $\Omega = \Omega_h \times \Omega_\tau$ to‘rda approksimatsiyalanadi.

Uyurma tenglamasini Pismen-Rekford sxemasi bilan yechishda k qatlamdan $k+1$ qatlamga o‘tish ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda $\omega_{i,j}^{k+1/2}$ oraliq qiymatlar quyidagi tenglamalar sistemasidan aniqlanadi:

$$\frac{\omega_{i,j}^{k+1/2} - \omega_{i,j}^{k}}{0,5\tau} + \frac{\omega_{i+1,j}^{k+1/2} - \omega_{i-1,j}^{k+1/2}}{2h} \frac{\psi_{i,j+1}^{k} - \psi_{i,j-1}^{k}}{2h} -$$

$$-\frac{\omega_{i,j+1}^{k} - \omega_{i,j-1}^{k}}{2h} \frac{\psi_{i+1,j}^{k} - \psi_{i-1,j}^{k}}{2h} = \frac{\nu}{h^2}\left(\omega_{i+1,j}^{k+1/2} - 2\omega_{i,j}^{k+1/2} + \omega_{i-1,j}^{k+1/2} \right) + \tag{46}$$

$$+\frac{\nu}{h^2}\left(\omega_{i,j+1}^{k} - 2\omega_{i,j}^{k} + \omega_{i,j-1}^{k} \right) + Q\left(t_{k+1/2}, x_i, y_i \right), \quad i = \overline{1, N-1},$$

ikkinchi bosqichda esa topilgan $\omega_{i,j}^{k+1/2}$ qiymatlardan foydalanib, quyidagi tenglamalar sistemasidan $\omega_{i,j}^{k+1}$ qiymatlar topiladi:

$$\frac{\omega_{i,j}^{k+1} - \omega_{i,j}^{k+1/2}}{0,5\tau} + \frac{\omega_{i+1,j}^{k+1/2} - \omega_{i-1,j}^{k+1/2}}{2h} \frac{\psi_{i,j+1}^{k} - \psi_{i,j-1}^{k}}{2h} -$$

$$-\frac{\omega_{i,j+1}^{k+1} - \omega_{i,j-1}^{k+1}}{2h} \frac{\psi_{i+1,j}^{k} - \psi_{i-1,j}^{k}}{2h} = \frac{\nu}{h^2}\left(\omega_{i+1,j}^{k+1/2} - 2\omega_{i,j}^{k+1/2} + \omega_{i-1,j}^{k+1/2} \right) + \tag{47}$$

$$+\frac{\nu}{h^2}\left(\omega_{i,j+1}^{k+1} - 2\omega_{i,j}^{k+1} + \omega_{i,j-1}^{k+1} \right) + Q(t_{k+1}, x_i, y_i), \quad i = \overline{1, N-1}.$$

Tenglamalar (46) va (47) progonka metodi bilan yechiladi. Differensial tenglama (41) approksimatsiya qilinib 3.1 paragrafda bayon qilingan OYIS metodi bo‘yicha yechiladi. Bunda topilgan har bir ψ_{ij}^{k} yechimlar tenglama (47) ni progonka metodi bilan yechishda qo‘llanadi.

Ushbu paragrafda OYIS ning samaradorligi boshqa iteratsiya metodlari bilan taqqoslab, jadval va grafik shaklda ko‘rsatilgan.

1-jadval.

O‘YIM va boshqa iteratsiya metodlarida ε aniqlik uchun talab etiladigan iteratsiyalar soni

Aniqlik ε / Iteratsion metod	0,001	0,0001	0,00001	0,000001
O‘YIM	5,437918	6,947587	8,457256	9,966925
Yuqori relaksatsiya	87,95487	117,2732	146,5914	175,9097
Zeydel	279,9773	373,3031	466,6288	559,9546
Oddiy iteratsiya metodi	559,9546	746,6061	933,2576	1119,909

Jadvaldan ko‘rinadiki, Navye-Stoks tenglamalarini uyurma-tok funksiyasi tizimida yechishda $\varepsilon = 0,001$ aniqlikni ta’minlash uchun O‘YIM 5 ta iteratsiya, ayni vaqtda yuqori relaksatsiya iteratsion metodi 88 ta iteratsiya, Zeydel iteratsion metodi 280 ta iteratsiya, oddiy iteratsiya metodi esa 560 ta iteratsiyalarni talab etadi. Huddi shu kabi parametr ε ning boshqa qiymatlarida yanada kuchliroq effekt kuzatiladi.

3.3-paragrafda uyurma-tok funksiyasi masalasini yechish algoritmi va kompyuter dasturi tuzilmasi keltirilgan.

3.4 – paragrafda hisoblash ekperimenti natijalari grafik va jadval ko‘rinishda berilgan. Sonli hisoblash natijalari quyidagi rasmlar va jadvallarda keltirilgan:



a) sonli yechim b) aniq yechim

1-rasm. Uyurma tenglamasini Pismen-Rekford va tok funksiyasini yuqori relaksatsiya metodi bilan yechganda olingan natijalar



a) sonli yechim b) aniq yechim

2-rasm. Uyurma tenglamasini Pismen-Rekford va tok funksiyasini optimal parametrli iteratsiya sxemasi bilan yechganda olingan natijalar

2-jadval.

Uyurma tenglamasini Pismen-Rekford va tok funksiyasini yuqori relaksatsiya hamda optimal parametrli o‘zgaruvchan yo‘nalishli iteratsiya sxemasi bilan yechganda olingan natijalar

№	Taqribiy yechim PR va YuR	Taqribiy yechim PR va O‘YIS	Aniq yechim	Xatolik optimal parametrli PR va O‘YIS	Xatolik PR va YuR
1	-11,2675	-11,2785	-11,2795	0,001	0,012
2	-2,80779	-2,81827	-2,81989	0,00162	0,0121
3	5,6519	5,64194	5,63977	0,00217	0,01213
4	14,1116	14,1022	14,0994	0,0028	0,0122
5	22,5713	22,5624	22,5591	0,0033	0,0122
6	31,031	31,0226	31,0188	0,0038	0,0122



a) sonli yechim b) aniq yechim

3-rasm. Uyurma tenglamasini Pismen-Rekford va tok funksiyasini yuqori relaksatsiya metodi bilan yechganda olingan natijalar



a) sonli yechim b) aniq yechim

4-rasm. Uyurma tenglamasini Pismen-Rekford, tok funksiyasini optimal parametrli iteratsiya sxemasi bilan yechganda olingan natijalar

3-jadval.

Uyurma tenglamasini Pismen-Rekford va tok funksiyasini yuqori relaksatsiya hamda optimal parametrli o‘zgaruvchan yo‘nalishli iteratsiya sxemasi bilan yechganda olingan natijalar

№	Taqribiy yechim PR va YuR	Taqribiy yechim PR va O‘YIS	Aniq yechim	Xatolik optimal parametrli PR va O‘YIS	Xatolik PR va YuR
1	0,13374	0,14288	0,14288	0	0,00914
2	0,26747	0,28577	0,28571	6E-05	0,01824
3	0,40121	0,42865	0,42857	8E-05	0,02736
4	0,53494	0,57153	0,57143	1E-04	0,03649
5	0,66868	0,71442	0,71429	0,00013	0,04561
6	0,80242	0,8573	0,85714	0,00016	0,05472

Rasmlar va jadvallardagi ma’lumotlardan ko‘rinadiki, uyurma va tok funksiyasi masalalarini sonli yechishda o‘zgaruvchan yo‘nalishli iteratsiya sxemasini optimal iteratsiya parametrlari bilan qo‘llash boshqa iteratsiya sxemalariga nisbatan samarali hisoblanadi.

XULOSALAR

Dissertatsiya ishi ikki o‘lchamli Navye-Stoks tenglamalarini chiziqli bo‘lmagan evolyutsion uyurma tenglamasi va elliptik tipdagi tok funksiyasi tizimida sonli modellashtirishga bag`ishlangan.

Dissertatsiya ishining asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

1. O‘zgaruvchan yo‘nalishli iteratsiya metodining optimal iteratsiya parametrlari bilan yaqinlashishini ta’minlovchi teoremalar isbotlangan.

2. Bir o‘lchamli uyurma tenglamasi manba hadini va qovushqoqlik koeffitsiyentini topishning teskari masalasi yechimini yuqori aniqlik bilan topish algoritmi ishlab chiqilgan.

3. Puasson tenglamasini optimal iteratsiya parametrlariga ega bo‘lgan o‘zgaruvchan yo‘nalishli iteratsiya metodi bilan yechish uchun sinov funksiyalari metodidan foydalangan holda hisoblash eksperimenti o‘tkazilgan.

4. Uyurma-tok funksiyasi tenglamalari sistemasini sonli yechishda mavjud metodlarga nisbatan juda kam iteratsiya talab qiladigan samarali hisoblash metodi yaratilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.FM.01.02
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА**

ТЕРМЕЗСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ГУЛОМКОДИРОВ КОМИЛЖОН АЛИШЕРОВИЧ

ЧИСЛЕННОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ УРАВНЕНИЙ НАВЬЕ-СТОКСА В СИСТЕМЕ ВИХРЯ - ФУНКЦИЯ ТОКА

05.01.07-Математическое моделирование. Численные методы и комплексы программ

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ**

ТАШКЕНТ – 2022

Тема диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за B2021.1.PhD/FM591.

Диссертация выполнена в Термезскском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (http://ik-fizmat.nuu.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Нормуродов Чори Бегалиевич** доктор физико-математических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Садуллаева Шаҳло Азимбаевна** доктор физико-математических наук, доцент
	Худойберганов Мирзоали Уразалиевич доктор физико-математических наук, доцент
Ведущая организация:	**Самаркандский государственный университет**

Защита диссертации состоится «__» _______ 2022 года в ____ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 при Национальном университете Узбекистана (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4. Тел.: (+99871) 227-12-24, факс: (+99871) 246-53-21, e-mail: nauka@nuu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирована за №_____). (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4. Тел.: (+99871) 246-02-24).

Автореферат диссертации разослан «__» _______ 2022 года.
(протокол рассылки № __ от «__» _______ 20__ года).

М. Арипов
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н., профессор

З.Р. Рахмонов
Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н.

Б.Ф.Абдурахимов
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней д.ф.-м.н., профессор,

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии(PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Многие научные и практические исследования проводимых во всем мире в основном сводятся к математическому моделированию систем связанных с решением дифференциальных уравнений описываемых движение жидкостей и газов, численным решением нелинейных уравнений, применением экономичных и эффективных методов. В том числе, разработана методов решения уравнений Навье-Стокса служит важным фактором при развитии ряда направлений связанные с течением жидкостей и газов. Уравнения Навье-Стокса являются системой нелинейных дифференциальных уравнений, которые описывают движения сплошных сред (жидкостей или газов) с учётом их свойств вязкости. Посколько аналитические решения уравнений Навье-Стокса до настоящего времени не найдены, то по этой причине, разработка численных алгоритмов решения этих уравнений и создание комплекса программ являются одной из важных задач стоящих перед прикладной математики.

В настоящее время в мире ведутся широкие исследования по математическому моделированию уравнений Навье-Стокса в системе нелинейных эволюционных уравнений для вихря и эллиптических уравнений для функци тока. Высокоточное и эффективное решение уравнений Навье-Стокса важно для развития всех областей, связанных с течением жидкостей и газов, включая водное хозяйство, нефтегазовую промышленность, аэродинамику, метеорологию и многие другие области. По этой причине численное решение уравнений Навье-Стокса и создание программных комплексов имеющих удобный интерфейс ориентированных для широкого круга пользователей являются целенаправленным научным исследованием.

В нашей стране уделяется большое внимание к научным и практическим применениям актуальных направлений фундаментальных наук, разработка численно-аналитических методов решения задач в областях динамика жидкостей и газов, гидродинамика, аэродинамика. В частности, достигнуты значительные успехи в математическом моделирование нелинейных эволюционных процессов и разработке высокоточных и эффективных приближенных методов. Одной из основных задач института Математики имени В.И.Романовского АН РУз является проведение научных исследований по приоритетным направлениям «Функционального анализа, алгебры, дифференциальных уравнений, математической физики, математическому моделированию, вычислительной математики и дискретной математики, теории вероятностей и математической статистики»[1]. В связи с этим важным является создание эффективных методов решения уравнений Навье-Стокса, описывающих движение жидкостей и газов в системе вихря-функции тока, построение алгоритмов численного моделирования нелинейных процессов, создание программного обеспечения.

[1] Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП–4708 «О мерах по повышению качества образования и развитию научных исследований в области математики» от 07 мая 2020 года.

